

Mangu hilpirayver, bayrog' im!

Bugun erta tongdan O'zbekiston Respublikasining "Davlat bayrog'i to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan kun munosabati bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida bayram shodiyonasi boshlandi.

Oliygo'hnning kirish eshigida yonida zahmatkash ustozlar va iqtidorli talabalar ishtirokida ko'ngilochar tadbir tashkil etildi.

Bayrog'imiz qabul qilingan kun barchangizga muborak bo'lsin!





Jannatmakon yurt ohanglari

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida folklor va etnografiya kafedrasi katta o'qituvchisi Bekzod Davronovning «Jannatmakon yurt ohanglari» nomli sinf konserti bo'lib o'tdi.

Tadbir davomida kafedra o'qituvchilari va iqtidorli talabalar tomonidan o'zbek va qardosh mamlakatlarning xalq kuylari va qo'shiqlari ijro etilib, tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi.







Tanqid va tahlil – rivojlanish omili

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rahbariyati boshchiligida tanqidiy-tahliliy yig'ilish o'tkazildi.


Yig'ilish davomida mas'ul shaxslarga berilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilindi. O'z ishiga mas'uliyatsiz yondashayotgan xodimlar tanqid ostiga olindi.

«Taraqqiyotga faqatgina maqtov va qarsakbozlik bilan erishib bo'lmaydi. Berilayotgan topshiriq hamda vazifalar og'izda

yoki qog'ozda qolib ketmasligi darkor. O'z ishini sidqidildan bajarayotgan xodimlardan benihoya minnatdormiz. Biroq lavozimga bepisandlik bilan yondashish orqali taraqqiyot sari ildamlash imkoni yo'q», – dedi institut rektori v.b. Eldor Shermanov.

Shuningdek, institut rahbariyati Bubusara Beyshenaliyeva nomidagi Qirg'iz davlat madaniyat va san'at universiteti nomidan yuborilgan maxsus esdalik sovg'asini qabul qilib oldi.

Eslatib o'tamiz, yaqinda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professor-o'qituvchilari tomonidan qo'shni mamlakatdagi oliygohda mahorat darslari o'tkazilgandi.







O'zDSMIda ilmiy seminar o'tkazildi

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Innovasion rivojlanish agentligi huzuridagi ilmiy-texnik axborot markazi bo'limi boshlig'i Iskandar Rahmatullayev tomonidan seminar tashkil etildi. Unda professor-o'qituvchilar, kafedra mudirlari, bo'lim boshliqlari va doktorantlar ishtirok etdi.

Seminarda respublika va xalqaro ilmiy jurnallar talabalariga mos keladigan maqolalar chop etish borasida taqdimot namoyish etildi hamda atroflicha ma'lumot berildi.







Millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik – yuksalish poydevori

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan joriy yilning 13-19-noyabr kunlari respublika miqyosida "Bag'rikenlik haftaligi" o'tkazilmoqda.

Mazkur haftalik doirasida O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi bilan hamkorlikda "Millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik – yuksalish poydevori!" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Tadbir davomida qo'mita mas'ul xodimi Shohruh Jumayev tomonidan mamlakatimizda diniy bag'rikenglik va turli millat vakillariga qaratilayotgan e'tibor, birgalikda amalga oshirilayotgan loyihalar to'g'risida atroflicha ma'lumot berildi.

Shu bilan birga, talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollar yuzasidan tegishli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishdi.



O'zDSMIda liderlar guruhi shakllantiriladi


Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rahbariyati oliy o'quv yurtining iqtidorli talabalari bilan uchrashdi.

Ochiq muloqot tarzida o'tgan uchrashuvda iqtidorli talabalarni bir yerga jamlagan holda liderlar guruhini shakllantirish vazifasi ilgari surildi.

«Institutimizda har bir yo'nalishning o'z mutaxassislari, professional ijodkorlari bor. Agarda barchamiz birdamlikda harakat qilsak, ulkan ijodiy ishlarni yaratishimiz mumkin. Oldimizda ko'plab vazifalar turibdi, turli loyihalar bo'yicha zamonaviy dunyoqarashga ega siz kabi kreativ yoshlar ko'magiga muhtojmiz. O'ylaymanki, bu jarayon ham sizlarning yuksak marra-larni zabt etishingizda pillapoya bo'lib xizmat qiladi», dedi institut rektori v.b. Eldor Shermanov.

Muhokamada liderlar guruhi faoliyati, maqsad va vazifalari to'g'risida professor-o'qituvchilar va talabalar tomonidan bildirilgan takliflar o'rganildi.







«O‘zbek kinosi – yangi nigoh» kino oyligi muhokamasi bo‘lib o‘tdi

Bugun Alisher Navoiy nomidagi kino saroyida joriy yil so‘ngida tashkil etilishi rejalashtirilgan «O‘zbek kinosi – yangi nigoh» kino oyligi muhokamasi bo‘lib o‘tdi.



Unda O‘zbekiston Kinematografiya agentligi bosh direktori Firdavs Abduxoliqov, agentlik direktorining birinchi o‘rinbosari Shuhrat Rizayev, Kinoarboblar uyushmasi raisi

Matyoqub Matjonov, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori v.b. Eldor Shermanov, oliygoh kafedra mudirlari hamda kino sohasining taniqli namoyondalari va taniqli jamoat arboblari ishtirok etdi.



Ma'lum qilinishicha, kino oylik doirasida «Oltin Humo» milliy mukofotini taqdirlash marosimi, talabalar o'rtasida «Debyut» qisqa metrajli filmlar tanlovi, kinotaqdimotlar, ilmiy konferensiya, forum va boshqa turli tadbirlar tashkil etiladi.



Muhokama davomida mas'ul shaxslar o'z fikrlarini bildirdi.

Kinematografiya agentligi direktor o'rinbosari Shuhrat Rizayev:

«Bugungi kunda siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotimizda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bunday paytda bir chetda turishimiz gunoh sanaladi. Biz ham o'z ijodiy ishlarimiz, tadbirlarimiz bilan jipslashishimiz zamon taqozosi hisoblanadi. O'ylaymanki, mazkur kinooylik ham har qanday talablarga javob beradigan hamda esda qolarli tarzda o'tkaziladi».



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori v.b. Eldor Shermanov:

«Bizning oliygoh avval ham xalqaro darajadagi festivallarga mezbonlik qilgan. Shu bois, bu borada salohiyatimiz va tajribamiz yetarli. Bugungi kunda yurtboshimiz tomonidan kino sohasiga katta e'tibor qaratilayotgani barchamizni quvontiradi. Mazkur festival doirasida ko'plab talabamiz o'z filmlari bilan ishtirok etadi. Biz ham bundan mamnunmiz. Negaki, yoshlarni qo'llab-quvvatlasak, ular kino sohasi rivoji yo'lida xizmat qiladi».

Kinoarboblar uyushmasi raisi Matyoqub Matjonov:

«Kino oyligi katta mas'uliyatga ega tadbir ekanligini his qilib turibmiz. Joriy yilgi tadbirlar boshqacha o'tishi aniq. Sababi, festival doirasida oltita film premerasi namoyish etilishi ko'zda tutilmoqda. Tarixda bunaqasi bo'lmagan. Prezidentimiz tashabbusi zamirida kino sohasining jamiyatimizdagi o'rni yuksalib bormoqda. Davlat rahbarimiz tomonidan berilayotgan e'tiborni shunday tadbirlar orqali namoyish eta olishimiz kerak».



«O‘zbek kinosi – yangi nigoh» kino oyligi dekabr oyida o‘tkaziladi. Mazkur tadbirlarda O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti professor-o‘qituvchilari hamda talabalari ham ishtirok etadi.

O‘zDSMI da «Zakovat quiz» intellektual o‘yini o‘tkazildi

Bugun O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutida «Zakovat quiz» intellektual o‘yini o‘tkazildi.

Mazkur bellashuvda o‘nga yaqin jamoa o‘z bilim va ko‘nikmalarini sinovdan o‘tkazishdi.

Eslatib o‘tamiz, «Zakovat» o‘yinlari haftaning shanba kunlari o‘tkazilib kelinadi va g‘oliblar ko‘chma kubok bilan taqdirlanadi.

